UDK: 902/904:666.1(575.11)(091)

MILLIY PICHOQCHILIK MAKTABLARINING RIVOJLANISHI: YO‘NALISHLARI VA MUAMMOLARI

***Maxmudov Abduqaxxor Burxonjon o‘g‘li**, PhD, dotsent,*
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi,
*E-mail:*abduqahhormahmudovab2712@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy pichoqchilik maktablarining yo‘nalishlari va muammolari tarixiy va etnologik jixatdan Farg‘ona vodiysi pichoqchilik maktablari misolida yoritib berilgan. Shuningdek pichoq yasash usullari, ishlash texnologiyasi, charxlash jarayonlari milliy uslublar hududlar misolida taxlil qilingan. Xususan pichoqchilik markazlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.*

Аннотация: В данной статье с исторической и этнологической точек зрения рассматриваются направления и проблемы национальных школ ножевого ремесла на примере школ ножевщиков Ферганской долины. Также анализируются методы изготовления ножей, технологии обработки и процессы заточки на примере региональных национальных стилей. В частности, приводятся сведения о проблемах, препятствующих развитию центров ножевого ремесла.

***Abstract:** This article examines the directions and challenges of national knife-making schools from historical and ethnological perspectives, using the knife-making schools of the Fergana Valley as a case study. It also analyzes knife-making methods, production technologies, and sharpening processes based on regional national styles. In particular, information is provided on the problems hindering the development of knife-making centers.*

***Kalit so‘zlar:** Milliy pichoqchilik maktablari, pichoq yasashda ishlatiladigan mustahkam po‘lat va xayvon shoxlari, Chust pichoq zavodi, pichoq tig‘ini sug‘orish, koma chiziq, pichoq charxi.*

***Ключевые слова:** Национальные школы ножевого ремесла, прочная сталь и рога животных, используемые при изготовлении ножей, Чустский ножевой завод, закалка клинка ножа, линия «кома», заточка ножа.*

***Key words:** National knife-making schools, durable steel and animal horns used in knife making, Chust Knife Factory, quenching of the knife blade, koma line, knife sharpening.*

Kirish. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanib, ushbu insonlarga alohida mavqega ega bo‘lgan ijtimoiy sinf sifatida qaralgan. Shuning uchun asrlar davomida turli omillar ta’sirida milliy hunarmandchilik sohalari takomillashib borgan [1]. Farg‘ona vodiysidagi pichoqchilik markazlari o‘zining yuqori sifatli pichoqlari bilan nafaqat mintaqa bozorlari, balki butun Markaziy Osiyo va bir qator uzoq mamlakatlarda ham tanilgan bo‘lsa-da, biroq mustamlakachilik davridagi iqtisodiy munosabatlar soha taraqqiyotiga salbiy ta’sir o‘tkazgan. Keyinchalik, ya’ni Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi davrida milliy pichoqlarga sovuq qurol tarzida qarash mavjud bo‘lgan. Bunga milliy pichoqlarni egiluvchanligini mustahkamlash maqsadida ochilgan koma chiziq sabab bo‘lgan. Aslida sovuq qurol sifatida ishlangan xanjarnusxa pichoqlar ham bo‘lgan, ammo ushbu turdagi pichoqlarni mahalliy ustalar tomonidan tayyorlanmagan [2]. Bundan tashqari, sovet mustamlakachiligi davrida pichoqchilik tarmog‘ida artellar tuzilishi tarmoq rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan [3].

Usullar. Pichoqchilik maktablari rivoji va usta-shogird an’analariga putur yetkazgan jarayonlardan biri viloyatlarda artellar hamda hunarmandlar tayyorlaydigan o‘quv yurtlari ochilishidir. Jumladan, Chustda dastlab “Qizil kuch” arteli (1932), keyinchalik pichoq ishlab chiqarish zavodi qurildi (1970), ishlab chiqarish kombinati tashkil etildi (1978). Chust pichoq

zavodida 100 turdan ziyod pichoq, xanjar, qilich va boshqa turdagi tig‘li mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi [4].

Natijalar. Biroq, o‘lkada milliy pichoqchilik taraqqiyoti butunlay to‘xtab qolmagan. Ta’kidlash o‘rinliki, mustaqillik ilk yillaridan boshlab O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik, xalqning madaniy merosi, an’analar hamda milliy qadriyatlarni tiklash, usta-hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Amalga oshirilgan islohotlar tufayli Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridagi pichoqchilik markazlari o‘z faoliyatini erkin tarzda davom ettirib, milliy pichoqchilik maktablarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishini ta’minladi. Mustaqillikdan keyin Chust, Shahrixon, Qorasuv, Qo‘qon, Xiva, Toshkent, Poytug‘ kabi pichoqchilik maktablarining faoliyati qaytadan yangi bosqichga ko‘tarildi [5].

Odatda, Markaziy Osiyo pichoqlarini tadqiqotchilar tig‘ining tuzilishiga ko‘ra ikki turga bo‘lishadi. Birinchisi Shimoliy, ikkinchisi janubiy mintaqa pichoqlariga ajratiladi. Farg‘ona vodiysi ikki hududning markazida joylashgani sababli ham shimol, ham janub an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan.

Farg‘ona vodiysi pichoqchilik markazlarida tayyorlangan pichoqlar tig‘ tuzilishi bilan bir qatorda o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Farg‘ona vodiysidagi Chust va Shahrixonda pichoqchilik maktablarida tayyorlanadigan mahsulotlar asosan, besh xil shaklda yasalgan. Jumladan, qayqi, qashqarcha (xanjar tig‘li), tol bargi, to‘g‘ri va qozoqcha pichoqlar alohida shaklda yasalgan [6]. Shuningdek, Farg‘ona vodiysida alohida bitta pichoq turini yasash bilan ham bir-biridan ham ajralib turadi. Masalan, Chust pichoqchilik maktabi ustalari tomonidan tig‘ uchi biroz yuqoriga ko‘tarilgan qayqi pichoqlar yasash urfga aylangan. Shu tufayli xalq orasida Chust pichoq, Shahrixon pichoq, Andijon pichoq, Qo‘qon pichoq, Qorasuv pichoq kabi turlari vujudga kelgan. Shahrixon va Chust pichoqchilik maktabi ustalari tomonidan tayyorlangan pichoqlar tig‘i tayyorlangan metallning yuqori sifati bilan ham ajralib turgan [7].

Bitta pichoq tayyorlashning 87 xil usuli mavjud bo‘lib, ularning barchasi bajarilgandan so‘nggina pichoq tayyor holga kelgan. Vodiy pichoqchilikning boshqa mintaqa pichoqchilik markazlaridan farq qiladigan jihatlaridan biri bu sug‘orish jarayoniga katta e’tibor berilishidir. Pichoqni past sug‘orilsa, keskirligi kamayadi, baland suvga to‘yintirilsa, tig‘i yorilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun pichoqni sug‘orish eng murakkab jarayon sanalgan. Metall holatiga qarab faqat ustaning o‘zi pichoq me’yorda sug‘orilganini aniqlay olgan xolos. Agarda pichoq me’yorida sug‘orilsa, 40 yilgacha sinmaydi va keskirligi yo‘qolmaydi.

Pichoqni sug‘orish jarayoni hududiy jihatdan farq qilgan. Masalan, Shahrixon ustalari pichoqni bir marta, chustliklar esa bir necha marta sug‘orib, zarur natijaga erishgan. Shundan keyin rishta egov yordamida tig‘da soy-koma ochilgan [8]. Ushbu usulda yasalgan pichoq keskir va mustahkamligi bilan alohida ajralib turgan.

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysi pichoqchilik maktablarining bir-biridan farq qiluvchi usullaridan biri bu pichoqning sop qismini tayyorlash jarayonidir. Farg‘ona vodiysida pichoq sopini yog‘ochdan yorma hayvon shoxidan suqma soplar tayyorlash urfga aylangan. Odatda, vodiy pichoqlari suqma sopli pichoqlari bilan nom qozongan. Keyinchalik ushbu an’analar hom-ashyoning kamayishi bilan yo‘qolib borgan. Mahalliy ustalar suqma sopli pichoqlarni tayyorlashda asosan, hayvon shoxlaridan foydalangan.

Vodiyda pichoqlari sopining o‘ziga xos yasalishida ham bir muncha farqlar mavjud. Masalan, qo‘qonlik ustalar pichoq sopini nozikroq, poshna qismlariga berilgan naqshlarda bir-xilliklar mavjud. Shahrixon va Chustda esa pichoq sopi birmuncha mustahkamroq, uning gulbandiga o‘ziga xos *“taginishon”* naqshi bilan bezatilib, sopdagi o‘zak mixlar atrofini *“chelmexa*” mixchalar bilan mustahkamlanib, sopga firuza halqasini o‘rnatgan. Ayniqsa, ushbu jihat vodiydagi Qorasuv pichoqchilik markazida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qorasuvda ustalar pichoq sopiga qizil, ko‘k, sariq rangli lok, Shahrixonda ***“zaharmura”*** nomli soydan olinadigan ko‘k rangli qimmatbaho toshdan “ko‘z” o‘rnatib, so‘ngra ular oralig‘iga oq simdan mix qoqilgan.

Shunday gul atrofiga chilmixa parmada mayda teshik ochib, sariq mis simdan qoqilib naqshlangan. Ushbu usul “chelmexagul” usuli deb yuritilib, qadimdan foydalanib kelingan [9].

Bugungi kunda vodiyda pichoqchilik hunari rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda, milliy mahsulotlarga bo‘lgan talab mahalliy va xorijiy sayyohlar tomonidan ortib bormoqda. Mamlakatimizda hunarmandchilik sohalarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, bugungi kunda zamonaviy pichoqchilik hunarmandchiligining rivojlanishi va milliy maktablarning taraqqiy etishiga to‘sqinlik qilayotgan bir qator sabablar mavjud.

Pichoqchilik sohasini rivojlanishi va bir qator mahsulotlarga bo‘lgan talablarni qondirishda ayrim muammolar ham ko‘zga tashlanadi. Shulardan biri pichoq sopisini tayyorlashda ishlatiladigan hayvon shoxlarining yetishmasligidir. Hozirda hayvon shoxlarini topish esa borgan sari pichoqchi hunarmandlar uchun muammoga aylanib bormoqda. Chunki, pichoqchilik rivojlangan markazlarda umuman hayvon shoxlarini sotadigan do‘konlar mavjud emas. Ustalar mol, qo‘y, echki kabi uy hayvonlarining shox va ilik suyaklarini topishda asosan, qassoblarga murojaat qiladi. Shu bilan bunga bo‘lgan ehtiyoj ma’lum darajada qondiriladi. Lekin, alqar, karkidon, kiyik, bug‘i kabi hayvonlar shoxini topish juda qiyin. Xorijdan kelgan sayyohlar eng avvalo, pichoq sopining tabiiyligiga alohida e’tibor beradi, bu esa pichoq narxining ham ma’lum darajada ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Ushbu hayvon shoxlari Qozog‘iston va Qirg‘iziston ovchilari tomonidan olib kelinib, qora bozorlarda sotiladi. Mahalliy pichoqchilar ushbu mahsulot evaziga pul yoki o‘zlari tomonidan yasalgan mahsulotlarga almashtiradi. Odatda, olib kelingan shoxlar pichoqchilik ustaxonalarida 3-4 yil davomida quritilgan, shundan so‘nggina ulardan sop yasashda foydalanilgan [10].

Milliy pichoqchilik sohasini rivojlanishidagi keyingi muammolardan biri mamlakatimizga kontrafakt mahsulotlarning kirib kelayotganligidir. Xitoydan olib kelinaëtgan kontrafakt mahsulotlar bois qo‘l mehnati bilan tayyorlangan pichoqlarning bozori kasod bo‘lmoqda. Mahalliy tadbirkorlar Xitoydan olib kelingan pichoqlarning ustiga *“Chust”* va *“Shahrixon”* deb ëzilgan sifat belgisini tushirib, O‘zbekistonda arzonlashtirilgan holda sotmoqda.

Kontrafakt pichoqlar yog‘och soplar bilan kelganligi sababli uning soplarini olib tashlab, ma’lum haq evaziga hayvon shoxlaridan milliy an’ananadagi soplar o‘rnatilgan. Sop o‘rnatilgan Xitoy mahsulotlariga Chust, Shahrixon, Qo‘qon kabi pichoqchilik markazlarining maxsus tamg‘alari, milliy pichoqchilikka xos hilol va yulduz, paxta, bug‘doy kabi tasvirlar tushirilgan [11]. Mahalliy pichoqchilikka xos bo‘lgan barcha jarayonlar Xitoydan olib kelingan pichoqlarda amalga oshirilgan.

Muhokamalar. Odatda, ushbu pichoq faqatgina o‘tda toblanmaydi xolos, chunki ularga *“Xalolak”*, gulbandlar, sop qismiga esa chelmexa gullar bosilgan. Natijada, tayyor bo‘lgan pichoqni mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlardan haqiqiy ustalar ajrata oladi, xolos. Oddiy odamlar mahalliy va xorijiy turistlar pichoqlarni farqlay olmay, sotib olaveradi. Bu orqali avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy pichoqchilik an’analariga putur yetmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining “Amaliy san’atni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Qarori va “Mualliflik huquqlari haqidagi qonun” huquqiy hujjatlarni buzilishiga sabab bo‘lmoqda.

Milliy pichoqlar yasashda ustalar eng mustahkam metallardan foydalanadi. Shunday metallarni topish bugungi kunda pichoqchilikning rivojlanishidagi to‘siqlardan biri hisoblanadi, chunki eng keskir va mustahkam pichoqlar oboyma, klapan hamda egovlardan tayyorlangan. Mahalliy qassoblar ham pichoq olishda mahsulot tayyorlangan metallariga jiddiy e’tibor beradi. Bugungi kunda pichoqchilik rivojlangan hududlarda shunday mustahkam metallar sotadigan do‘konlar mavjud emas. Pichoqchi ustalar eski temirlar sotiladigan bozorlardan mustahkam metallarni qidirib sotib oladilar. Shuning uchun ham mustahkam va keskir pichoqlar tayyorlashda qiyinchilikka duch kelmoqda. Pichoqqa bezak berishda ishlatiladigan rangli metallar mis, qalay,

qo‘rg‘oshin kabi metallarni avtomobil ustaxonalari va eski buyumlar sotiladigan bozorlardan olishadi.

Odatda, pichoq yasash san’ati murakkab jarayon bo‘lib, uni metallni qizdirib, bosqonlab, tamg‘alar urilgandan so‘ng pichoq charxlanadi. Yuqorida pichoqni charxlashning 13 xil usuli borligi ta’kidlangan edi, lekin bugungi kunda pichoqchilik ustaxonalarida ishlatiladigan charxlarning Xitoydan olib kelinishi ularning narxini qimmat bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bitta katta charxning narxi 1-1.2 mln so‘mga boradi. Bundan tashqari, pichoqchilikning nozik ishlov berish jarayoni, ya’ni charxlash amaliyotida 13 xil charxdan foydalaniladi. Buni inobatga oladigan bo‘lsak, charx toshlariga talab yuqori hisoblanadi. Pichoqchilikdan tashqari temirchilikning ko‘plab sohalarida ketmon, tesha, o‘roq, bolta, chopqi kabi mahsulotlarni yasashda ham hunarmandlar albatta charxdan foydalangan.

Xulosa. Bu kabi muammolar milliy pichoqchilik san’atini to‘xtab qolishiga sabab bo‘la olmadi. Mahalliy pichoqchi ustalar tomonidan tayyorlangan pichoqlarga bo‘lgan talab yuqoriligicha qoldi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan pichoqlar faqat uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik buyumigina bo‘lib qolmay, balki milliy san’at asari darajasiga ko‘tariladi, shu tufayli xorijlik sayyohlar uchun eng qadrli sovg‘a sifatida ham qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qilichev U., Suvonov R. O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlanishi // O‘tmishga nazar. – 2021. – 4 jild. – №7. – B. 78–79.
2. Nurmatov M. Sh. O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik xususiyatlari (Fargona mintaqasi misolida). – Toshkent: Fan. 2013. – B. 40.
3. Esonov Z. Yu. Farg‘ona vodiysida pichoq tayyorlash hunarmandchiligi an’analari // O‘tmishga nazar №7,2019. – B. 43.
4. Chust tumani davlat arxivi. Chust tumani davlat arxivi. 17-fond, 1-ro‘yxat, 410 – yig‘ma jild, 3 bet.
5. Musayev D., Hoshimov H. Andijonning XIX asr oxiri – XX asr boshlari davri hunarmandchiligi tarixini o‘rganilishiga doir... – B. 123.
6. Кушбакова А. М., Индиаминов С. И. Узбекские национальные ножи (история, виды и конструктивные особенности в аспекте судебно - медицинской экспертизы) // Вестник врача. – 2021. – №2. – С. 72.
7. Dala yozuvlar. Andijon viloyati Shahrixon shahri Ubaydullo eshon mahallasi. 2020 yil; Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri buyum bozori. 2020 yil.
8. Esonov Z. Yu. Farg‘ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an’analari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020. – B. 75.
9. Dala yozuvlari Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Sulaymon qishlog‘i. 2020 yil; Andijon viloyati Shahrixon shahri buyum bozori pichoqchilar rastasi. 2020 yil.
10. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust tumani. 2022 yil; Andijon viloyati Andijon shahri. 2022 yil; Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri. 2023 yil.
11. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust shahri. 2022 yil.